

XOREOGRAFIYA SAN'ATIDA RAHBARLIK VA JAMOA BOSHQARUVINING AHAMIYATI

Maxammadjonova Muslima

O'zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasi
"Xoreografiya jamoalari rahbari" bo'limi 2-kurs talabasi.

Muxamedova M.A.

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22133957>

Bugungi kunda xoreografiya san'ati insoniyat madaniy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi san'at turi, balki ma'naviy tarbiya, jismoniy rivojlanish va madaniy qadriyatlarni avlodlar orasida yetkazuvchi vositadir.

Xoreografiya san'ati murakkab va jamoaviy san'at turi bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan kuchli rahbarlik va samarali boshqaruvga bog'liq. Har qanday sahna asari, raqs kompozitsiyasi yoki yirik ijodiy loyiha ortida jamoaviy mehnat va puxta tashkilotchilik yotadi. Shu sababli xoreografiya san'atida rahbarlik masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Rahbarlik tushunchasi insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. San'at sohasida esa rahbarlik ijodiy jarayonni boshqarish, jamoani bir maqsad sari yo'naltirish va umumiy natijaga erishishni ta'minlash vazifasini bajaradi. Xoreografiya jamoalarida rahbarning o'rnini yanada muhimroq, chunki bu yerda har bir ijrochi bir butun tizimning tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritadi.

Tarixiy jihatdan qaraganda, Sharq xalqlari madaniyatida ustoz-shogird an'analari san'at rivojining asosiy omillaridan biri bo'lgan. Ayniqsa, raqs san'atida ustozning shogirdga nafaqat texnik harakatlarni, balki sahna madaniyati, intizom va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tizim bugungi zamonaviy xoreografiya ta'limida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Xoreografiya jamoasida rahbarning birinchi va eng muhim vazifasi jamoani birlashtirishdir. Jamoa turli xarakter, turli qobiliyat va turli dunyoqarashga ega insonlardan tashkil topadi. Ularning barchasini yagona maqsad sari yo'naltirish, o'zaro hamjihatlikni shakllantirish va ichki muvozanatni saqlash rahbarning mahoratini ko'rsatadi. Chunki jamoada birlik bo'lmasa, sahnadagi uyg'unlikka erishish qiyin.

Rahbarning asosiy sifatlaridan biri — liderlik qobiliyatidir. Liderlik faqat buyruq berish emas, balki jamoaga ilhom bera olish, ularni ruhlantirish va qiyinchiliklarda yo'l ko'rsata olishdir.

Xoreografiya san'atida bu ayniqsa muhim, chunki ijodiy jarayon davomida ko'plab murakkab vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Jamoa boshqaruvida intizom muhim omil hisoblanadi. Intizom bo'lmagan jamoada sahna sifati va ijro mahorati pasayadi. Mashg'ulotlarga o'z vaqtida kelish, harakatlarni aniq bajarish va sahna madaniyatiga amal qilish professional xoreografiyaning muhim talablaridir. Rahbar ana shu tartibni shakllantiruvchi asosiy shaxsdir.

Xoreografiya rahbari faqat tashkilotchi emas, balki ijodkor hamdir. Har bir sahna asari ortida rahbarning badiiy qarashi, estetik didi va kreativ yondashuvi mujassam bo'ladi.

Musiqqa tanlash, harakatlarni sahnalashtirish, obraz yaratish va sahna bezaklarini uyg'unlashtirish rahbar zimmasidagi katta mas'uliyatdir.

Zamonaviy davr xoreografiya rahbaridan innovatsion fikrlashni ham talab qilmoqda.

Bugungi kunda sahna san'atida multimedia texnologiyalari, yorug'lik dizayni, videoproeksiyalar va maxsus effektlar keng qo'llanilmoqda. Rahbar bu vositalarni to'g'ri qo'llash orqali tomoshabinlarga yanada kuchli taassurot bera oladi.

Psixologik jihatdan ham rahbarning o'rni katta. Jamoa a'zolarining ruhiy holati, motivatsiyasi va ichki ishonchini saqlab qolish rahbarning vazifalaridan biridir. Chunki ko'pincha sahna oldidagi hayajon, stress yoki muvaffaqiyatsizliklar ijrochining ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kuchli rahbar esa jamoani ruhlantiradi va ularga ishonch bag'ishlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, xoreografiya rahbari tarbiyachi vazifasini ham bajaradi. Ayniqsa yosh raqqoslarni tarbiyalashda rahbar ularga intizom, mehnatsevarlik, sabr va mas'uliyat kabi fazilatlarni singdiradi. Bu esa nafaqat san'atda, balki hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda xoreografiya san'atida jamoa boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan kommunikatsiyaga bog'liq. Rahbar va jamoa o'rtasidagi ochiq muloqot, o'zaro hurmat va ishonch ijodiy jarayonning sifatini oshiradi. Agar jamoa rahbari tushunsa va unga ishonsa, natija yanada samarali bo'ladi.

Men hozirda O'zbekiston Davlat Xoreografiya Akademiyasida "Xoreografiya jamoalar rahbari" yo'nalishida tahsil o'lyapman. Bu yo'nalishda olayotgan bilimlarim menga rahbarlikning naqadar katta mas'uliyat ekanini chuqur anglashimga yordam bermoqda. Men tushundimki, yaxshi rahbar bo'lish uchun faqat raqsni bilishning o'zi yetarli emas. Inson psixologiyasi, pedagogika, boshqaruv va tashkilotchilik bilimlari ham juda muhim.

Kelajakdagi asosiy maqsadlarimdan biri kuchli va professional xoreografiya jamoasi rahbari bo'lishdir. Men o'z jamoam bilan yangi sahna asarlari yaratishni, milliy va zamonaviy raqslarni uyg'unlashtirishni va yosh iste'dodlarni tarbiyalashni istayman. Chunki kuchli rahbar nafaqat jamoani boshqaradi, balki san'at rivojiga katta hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, xoreografiya san'atida rahbarlik va jamoa boshqaruvi ijodiy jarayonning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Kuchli rahbar jamoani birlashtiradi, uning imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi va san'at rivojining asosiy tayanchiga aylanadi.

Har bir yosh xoreograf rahbarlik fazilatlarini rivojlantirib borishi, jamoa bilan ishlashni mukammal o'rganishi va o'z ustida tinimsiz ishlashi zarur. Chunki san'atdagi yuksak natijalarga erishish ko'p jihatdan kuchli rahbarlikka bog'liqdir.